XALQ DEPUTATLARI SAYXUNOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-022-9-126-K/24 Sayxunobod tumani

2025-yilgi tuman mahalliy budjetini tasdiqlash hamda daromadlar va xarajatlarning prognoz ko‘rsatgichlarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24, 25-moddalariga, Budjet Kodeksining 99-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat bujdeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonunga, Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi "2025-yilgi viloyat mahalliy budjetini tasdiqlash hamda tuman, shahar mahalliy budjeti daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlarini belgilash to‘g‘risida" VII-5-039-9-0-K/24-sonli qaroriga asosan, Xalq deputatlari Sayxunobod tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. Sayxunobod tumanining 2025-yilda asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi **1-ilovaga** muvofiq;

2. Sayxunobod tumanining mahalliy budjet daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari **2-ilovaga** muvofiq;

3. Sayxunobod tumanining mahalliy budjeti mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **3-ilovaga** muvofiq qabul qilinsin.

4. 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat bujdeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuni 12-moddasiga asosan (*bundan buyon – Qonun*) tuman budjetini soliqlaridan ajratmalar me’yorlari **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. 2025-yil uchun tuman budjeti zahira jamg‘armasi hajmi 606 436,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

6. Tuman mahalliy budjetining olti oylik ijrosi yakunlari bo‘yicha daromad prognozlari bajarilmagan va joriy moliya yilining oxirigacha ularning kelib tushishi uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lmagan hollarda, tuman mahalliy budjetining xarajatlarini qisqartirish bo‘yicha qarorlar Xalq deputatlari Sayxunobod tuman Kengashi tomonidan qabul qilinishi belgilansin.

Bunda, xarajatlarni qisqartirishda budjet tashkilotlarining va budjet mablag‘lari oluvchilarning budjet mablag‘larini o‘zlashtirishi, shuningdek, qabul qilingan yuridik va moliyaviy majburiyatlari hisobga olinadi.

Bunda, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni kamaytirish O‘zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksining 120-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

7. Qonunga muvofiq soliqlarning quyidagi turlari tuman mahalliy budjetiga to‘liq xajmda o‘tkaziladi.

aylanmadan olinadigan soliq;

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan daromad soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan daromad turlarini qo‘llaganda, tuman va shaharlar budjeti daromadlari xarajatlaridan ko‘p bo‘lsa yuqori turuvchi budjetlarga ajratmalarni ko‘zda tutishi mumkin.

Soliqlarning quyidagi turlari viloyat budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

benzin, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i.

Qonunning 12-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga qonunchilikda belgilangan miqdorlarda undiriladigan quyidagi daromadlar viloyat budjetida to‘liq qoldirilsin (Hukumat qarorlari bilan alohida tegishli budjetlarga taqsimlangan daromadlar bundan mustasno):

davlat bojlari;

jarimalar;

yig‘imlar;

davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar;

Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushadigan tushumlar tumanlar va shaharlar budjetlari hamda viloyat mahalliy budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

8. Qonunga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashlari tumanlarning ommaviy dam olish va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida ijara to‘lovi bo‘yicha eng kam stavkalarga hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat’iy belgilangan miqdorlariga Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o‘sib boruvchi koeffitsiyentlarni kiritishga haqli.

Agar qonunchilikda mahalliy budjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyatning viloyat budjetiga o‘tkaziladi.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-sonli Farmoni 1-bandida belgilangan vakolatlar doirasida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar mahallalar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining mutloq miqdorida bazaviy soliq stavkasi **5-ilovaga,** jismoniy shaxslardan (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) undiriladigan mutloq miqdorida 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi **6-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

10. Tuman bo‘yicha limit doirasida er usti va er osti manbalaridan suv resurslariga mutloq miqdorda bir kub metr belgilangan soliq stavkalari **7-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

11. Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalar **8-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

12. Tuman mahalliy budjetining aylanmma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori **607 803,0 ming so‘m** qilib tasdiqlansin.

13. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko‘ra, amalga oshiriladigan qo‘shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat viloyat va tuman mahalliy budjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

14. Tuman hokimligi choraklar yakuni bo‘yicha daromad prognoz ko‘rsatkichlari mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 (besh) foizdan ortiq miqdorga bajarilmagan taqdirda va moliya yili oxirigacha prognoz ko‘rsatgichidagi mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar asosida viloyat hokimligiga taklif kiritilishini ta’minlasin.

15. Ushbu Qaror 2025-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kiradi.

16. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (G‘.Xoliqberdiyev) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi (M.Axmedov)ga yuklatilsin.

Kengash raisi

MULLAJANOV
KOMILJON XUSAN
O‘G‘LI

Xalq deputatlari Sayxunobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-022-9-126-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Sayxunobod tumanining 2025-yilda asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha prognoz parametrlari

(so‘mda)

T/R	Ko‘rsatkichlar	2025-yil uchun prognoz
1.	Sanoat mahsulotlari xajmining o‘sishi, mlrd.so‘mda	934,8
	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	104,6
2.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning xajmining o‘sishi, mlrd.so‘mda	2 522,5
	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur′ati, foizda	103,8
3.	Bozor xizmat ko‘rsatish xajmining o‘sish sur′ati, mlrd.so‘mda	376,9
	Bozor xizmat ko‘rsatishning o‘sish sur′ati, foizda	*114,8*
4.	Qurilish – pudrat ishlari xajmining o‘sish sur′ati, mlrd.so‘mda	118,4
	Qurilish – pudrat ishlari xajmining o‘sish sur′ati, foizda	107,6

Xalq deputatlari Sayxunobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-022-9-126-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Sayxunobod tumani bo‘yicha mahalliy budjet daromadlarining reja ko‘rsatkichlari

T/R	Daromad turlari	Summa (ming so‘mda)
1	Aylanmadan olinadigan soliq	3 648 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	35 100 600
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	489 000
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 274 800
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	4 714 928
6	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	9 522 119
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	10 542 986
8	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	440 000
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 766 600
10	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	61 000
Jami		**72 560 033,00**

Xalq deputatlari Sayxunobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-022-9-126-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Sayxunobod tumani mahalliy budjetidan 2025-yil uchun hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilariga ajratiladigan budjet mablag‘larining umumiy cheklangan miqdorlari

T/R	Ko‘rsatkichlar	Miqdori (ming.so‘mda)
	Xarajatlar hammasi	**72 560 033,0**
1	**Maktabgacha va Maktab ta’lim bo‘limi**	**17 896 649,0**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	15 428 982,0
	Shundan	
	-Maktabgacha ta’lim muassasalarini saqlash xarajatlari	*8 005 012,0*
	-Umumiy o‘rta ta’lim maktablarini saqlash xarajatlari	*2 605 073,0*
	-Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi saqlash xarajatlari	*3 967 145,0*
	-Barkamol avlod bolalar markazi saqlash xarajatlari	*851 752,0*
	Umum ta’lim maktablariga ajratilgan mablag‘lar (open budjet)	2 467 667,0
2	**Madaniyat bo‘limi**	**2 978 883,0**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	2 978 883,0
	Shundan	
	-Madaniyat muassasalarini saqlash xarajatlari	*809 796,0*
	-Madaniyat bo‘limini saqlash xarajatlari	*138 278,0*
	-8-sonli bolalar musiqa va san’at maktabi	*2 030 809,0*
3	**Yoshlar ishlari bo‘limi**	**2 778 082,0**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	2 778 082,0
4	**Sport maktabi**	**9 449 193,0**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	9 449 193,0
5	**Hokimyat**	**16 663 748,0**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	7 214 968,0
	Shundan	
	-Tuman hokimligini saqlash xarajatlari	*2 964 986,0*
	-Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam	*19 438,0*

	paketi”	
	-“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	*1 117 893,0*
	-Ijtimoiy ko‘nikma markazini saqlash xarajatlari	*103 950,0*
	-Hokim yordamchilarini saqlash qarajatlari	*2 141 075,0*
	-Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari	*281 077,0*
	-Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*142 112,0*
	-Axborot-kutubxona markazini saqlash xarajatlari	*444 437,0*
	Fuqarolarning tashabbusli jamg‘armalari	8 842 344,0
	Zahira jamg‘armalari	606 436,0
6	**Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)**	**13 168 500,0**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	13 168 500,0
	Shundan	
	-Obodonlashtirish boshqarmasini saqlash xarajatlari	*9 168 500,0*
	-Tuman hududidagi xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarini, qishloqlar va ovullar ko‘chalari yo‘llarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash xarajatlari	*4 000 000,0*
7	**Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	**2 964 463,0**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	2 964 463,0
	Shundan	
	-Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazini saqlash xarajatlari	*892 635,0*
	-Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limini saqlash xarajatlari	*1 543 184,0*
	-Xayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat maxsulotlari xafsizligi davlat markazini saqlash xarajatlari	*528 644,0*
8	**Suv etkazib beruvchilar xizmati davlat muassasasi**	**1 375 850,0**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	1 375 850,0
9	**Oila va xotin-qizlar bo‘limi**	**948 252,0**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	948 252,0
10	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**2 396 490,0**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	2 396 490,0
11	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi**	**1 939 923,0**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	1 939 923,0

Xalq deputatlari Sayxunobod tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-022-9-126-K/24 -son qaroriga
4-ilova

2025-yil uchun Sayxunobod tuman budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari

foiz hisobida

№	Tuman nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Foyda solig‘i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Sayxunobod tumani	0%	95%	100%	5%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	30%	30%	0%	0%	100%	100%

foiz hisobida

№	Tuman nomi	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB

1	Sayxunobod tumani	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%

foiz hisobida

№	Tuman nomi	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Aylanmadan soliq	
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB		
1	Sayxunobod tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	0%

foiz hisobida

№	Tuman nomi	Davlat boji		Jarima		Yig‘imlar	
		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
1	Sayxunobod tumani	0%	100%	0%	100%	0%	100%

Xalq deputatlari Sayxunobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-022-9-126-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan erlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

ming so‘mda

T/r	MFY lar nomi	Koeffisient (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (1 gektar uchun)
1	Baxmasoy MFY	1,0	38 610,0
2	Gulbuloq MFY	1,0	38 610,0
3	Guliston MFY	1,0	38 610,0
4	Do‘stlik MFY	1,0	38 610,0
5	Ittifoq MFY	1,0	38 610,0
6	Mustaqillik MFY	1,0	38 610,0
7	Nurli yo‘l MFY	1,0	38 610,0
8	Nurobod MFY	1,0	38 610,0
9	Olg‘abos MFY	1,0	38 610,0
10	Paymard MFY	1,0	38 610,0
11	Paxtakon MFY	1,0	38 610,0
12	Paxtaobod MFY	1,0	38 610,0
13	Sintob MFY	1,0	38 610,0
14	Turon MFY	1,0	38 610,0
15	O‘zbekiston MFY	0,9	34 749,0
16	O‘rikzor MFY	0,9	34 749,0
17	Farovon MFY	0,9	34 749,0
18	Shodlik MFY	1,0	38 610,0
19	Yangi hayot MFY	0,9	34 749,0

Xalq deputatlari Sayxunobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-022-9-126-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so‘mda

T/p	Hudud nomi	Koeffisient (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (1 кv uchun)
1	Baxmasoy MFY	1,00	389,20
2	Gulbuloq MFY	1,00	389,20
3	Guliston MFY	0,90	350,28
4	Do‘stlik MFY	1,00	389,20
5	Ittifoq MFY	1,00	389,20
6	Mustaqillik MFY	0,90	350,28
7	Nurli yo‘l MFY	1,00	389,20
8	Nurobod MFY	1,00	389,20
9	Olg‘abos MFY	1,00	389,20
10	Paymard MFY	0,90	350,28
11	Paxtakon MFY	1,00	389,20
12	Paxtaobod MFY	1,00	389,20
13	Sintob MFY	1,00	389,20
14	Turon MFY	1,00	389,20
15	O‘zbekiston MFY	0,90	350,28
16	O‘rikzor MFY	0,90	350,28
17	Farovon MFY	0,90	350,28
18	Shodlik MFY	1,00	389,20
19	Yangi hayot MFY	0,90	350,28

Xalq deputatlari Sayxunobod tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-022-9-126-K/24 -son qaroriga
7-ilova

Sayxunobod tumani bo‘yicha limit doirasida er usti va er osti manbalaridan suv resurslariga mutloq miqdorda bir kub metr belgilangan soliq stavkalari

T/R	Hudud nomi	Ko‘rsatkichlar											
		Iqtisidiyotning barcha tarmoqlari uchun				Sanoat korxonalari uchun				Alkogolsiz va alkogol mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun (*pivo va vinodan tashqari*)		Avto transport vositalarini yuvish uchun	
		Er usti		Er osti		Er usti		Er osti					
		Koeffisient	2025-yil stavkasi	Koeffisient	2025-yil stavkasi	Koeffisient	2025-yil stavkasi	Koeffisient	2025-yil stavkasi	Koeffisient	2025-yil stavkasi	Koeffisient	2025-yil stavkasi
1	Sayxunobod tumani	1,5	1 050,0	1,5	1 275,0	1,5	1 050,0	1,5	1 275,0	1,5	57 000	1,5	22 500

Xalq deputatlari Sayxunobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-022-9-126-K/24 -son qaroriga
8-ilova

Sayxunobod tumanida noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalar

so‘mda

T/R	Hudud nomi	Qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag‘al aralashmasi		G‘isht-chereoitsa xom-ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	
		Koeffisient	Mutloq qiymat	Koeffisient	Mutloq qiymat
1	Sayxunobod tumani	1,3	6,500	1,3	6,006